



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 05 | pp. 315-321 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK



Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD.

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Annotatsiya: Mazkur maqola global miqyosda yuz berayotgan geosiyosiy, ekologik, moliyaviy va texnologik o'zgarishlar sharoitida davlatlarning iqtisodiy xavfsizlik tizimiga tahdid soluvchi omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan. So'nggi yillarda pandemiyalar, mintaqaviy qurolli mojarolar, global iqlim o'zgarishlari, energetika inqirozi va geoiqtisodiy raqobat kuchayib borayotgani iqtisodiy xavfsizlikka zamonaviy yondashuvni talab qilmoqda. Avvalo iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi keng yoritilib, uning asosiy tarkibiy qismlari – oziq-ovqat, energetika, moliyaviy barqarorlik, ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik mustaqillik va tashqi iqtisodiy munosabatlar xavfsizligi chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: global o'zgarishlar, iqtisodiy barqarorlik, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy diversifikatsiya, raqamli iqtisodiyot, tashqi iqtisodiy siyosat, strategik zaxiralar, iqlim o'zgarishlari

Аннотация: Статья посвящена анализу факторов, угрожающих системе экономической безопасности государств в контексте геополитических, экологических, финансовых и технологических изменений, происходящих в глобальном масштабе. В последние годы пандемии, региональные вооруженные конфликты, глобальное изменение климата, энергетический кризис и усиление геоэкономической конкуренции требуют современного подхода к экономической безопасности. Прежде всего, широко рассматривается понятие экономической безопасности и подробно анализируются ее основные составляющие: продовольственная, энергетическая, финансовая стабильность, производственный потенциал, технологическая независимость и безопасность внешнеэкономических связей.

Ключевые слова: глобальные изменения, экономическая стабильность, международные экономические отношения, экономическая диверсификация, цифровая экономика, внешнеэкономическая политика, стратегические резервы, изменение климата.

Abstract: This article is devoted to the analysis of factors threatening the economic security system of states in the context of geopolitical, ecological, financial and technological changes taking place on a global scale. In recent years, pandemics, regional armed conflicts, global climate change, energy crisis and increasing geoeconomic competition require a modern approach to economic security. First of all, the concept of economic security is widely covered, and its main components -

food, energy, financial stability, production capacity, technological independence and the security of foreign economic relations - are analyzed in depth.

Keywords: *global changes, economic stability, international economic relations, economic diversification, digital economy, foreign economic policy, strategic reserves, climate change*

KIRISH

XXI asr global miqyosdagi tub o'zgarishlar, geosiyosiy silkinishlar, ekologik muammolar va texnologik taraqqiyot davri bo'lib, bu holatlar davlatlarning iqtisodiy tizimlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, pandemiyalar, tabiiy ofatlar, quvvat resurslari tanqisligi, transport va logistika zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro moliya bozorlaridagi beqarorlik va geoiqtisodiy raqobat kuchayishi iqtisodiy xavfsizlik masalasini har bir davlat uchun strategik ahamiyatga ega qilishiga olib keldi. Ayni paytda global isish, iqlim o'zgarishlari, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi ham iqtisodiy xavfsizlik tamoyillarini yangicha tahlil qilish zaruratini tug'dirmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlik - bu davlatning ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlash, strategik resurslar va tarmoqlar ustidan nazoratni saqlab turish qobiliyatidir. Bugungi kunda ushbu tushuncha faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar doirasida emas, balki oziq-ovqat, energetika, moliyaviy mustaqillik, investitsiya muhiti, raqamli suverenitet, mehnat bozori va texnologik mustaqillik singari ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga olgan kompleks tahlil obyektiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi ham global o'zgarishlar fonida milliy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasini takomillashtirish va uni zamonaviy tahdidlar sharoitida mustahkamlash yo'lida tizimli chora-tadbirlar ko'rmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasi, eksport salohiyatining kengaytirilishi, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish va moliyaviy sektorni barqarorlashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar bu yo'nalishda muhim bosqich hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi va unga doir ilmiy yondashuvlar so'nggi yillarda global miqyosda keng muhokama qilinmoqda. Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik odatda davlatning iqtisodiy barqarorligini saqlash, tashqi va ichki xavf-xatarlarga qarshi immunitetini kuchaytirish hamda iqtisodiy suverenitetni ta'minlash sifatida izohlanadi. [S.X.Ibrohimov, 2024] ta'kidlaganidek, zamonaviy tahdidlar sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning o'lchovlari va tahlil metodologiyalari tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Unga ko'ra, milliy xavfsizlik tushunchasi ichida iqtisodiy xavfsizlik asosiy omilga aylanmoqda.

Xalqaro miqyosdagi tahlillar, xususan Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), va BMTning iqlim bo'yicha hisobotlarida global iqlim o'zgarishlari, resurs tanqisligi va texnologik asoratlar iqtisodiy xavfsizlikka kuchli bosim o'tkazayotgan tahdidlar sifatida ko'rsatilgan [World Bank, 2023]. Jumladan, pandemiyadan keyingi davrda xalqaro

ta'minot zanjirlarining izdan chiqishi, logistika tizimidagi uzilishlar ko'plab davlatlar iqtisodiy xavfsizligining zaif tomonlarini ochib berdi [OECD, 2022].

Milliy miqyosda esa iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha tadqiqotlar asosan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, sanoat tarmoqlarining barqarorligi, tashqi qarz holati, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi kabi yo'nalishlarga qaratilgan. [B.K.To'xtayev, 2021] iqtisodiy xavfsizlikni resurslarga bo'lgan mustaqillik va strategik tarmoqlarda davlat ishtirokining muvozanatli bo'lishi bilan bog'laydi. U iqtisodiy xavfsizlikning buzilishi ijtimoiy beqarorlik, ishsizlik va milliy daromadlarning kamayishi kabi oqibatlarga olib kelishini asosli tahlil etadi.

O'zbekiston bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi ta'minotida diversifikatsiya, importga qaramlikni kamaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi omillar muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [M.R.Abdullayev, 2023]. So'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha strategiyalar ham iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks choralar sifatida e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, ayrim tadqiqotchilar raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va kibertahdidlar orqali vujudga kelayotgan yangi xavf-xatarlarni ham iqtisodiy xavfsizlik doirasida o'rganishga chaqirmoqda [S.T.Rasulov, 2022]. Bu yondashuv iqtisodiy xavfsizlikni an'anaviy indikatorlar bilan cheklab bo'lmasligini va zamonaviy sharoitda yangi parametrlar asosida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida eng avvalo iqtisodiy xavfsizlikni baholash va tahlil qilishda **SWOT-tahlil** metodidan foydalanildi. SWOT - kuchli va zaif jihatlar, imkoniyatlar hamda tahdidlarni aniqlash orqali tahlil qilishga yo'naltirilgan tizimli yondashuv bo'lib, u strategik rejalashtirish va xavf tahlillarida keng qo'llaniladi. Ushbu metod global o'zgarishlar sharoitida O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligining hozirgi holati va istiqbollarini chuqur tahlil qilishda samarali vosita sifatida tanlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global o'zgarishlar, xususan pandemiya oqibatlari, geosiyosiy beqarorlik, iqlim o'zgarishi va texnologik raqobat kuchayishi hududiy iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, ushbu bo'limda Namangan viloyati misolida iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlil quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: yalpi hududiy mahsulot, sanoat salohiyati, bandlik darajasi, xorijiy investitsiyalar va tashqi savdo.

1-jadval.

Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmining yillik o'zgarishi
(mlrd so'mda)

Yil	YHM (mlrd so'm)	O'sish sur'ati (%)
2020	27 483	—
2021	31 120	+13,2
2022	35 705	+14,7

2023	39 812	+11,5
------	--------	-------

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Namangan viloyati bo'yicha hisobotlar, 2024

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YHM) 2020-yildan 2023-yilgacha barqaror o'sib borgan bo'lib, bu viloyat iqtisodiyotining izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Xususan, YHM hajmi 2020-yildagi 27 483 mlrd so'mdan 2023-yilga kelib 39 812 mlrd so'mga yetgan va bu davrda o'sish sur'atlari 11,5%–14,7% oralig'ida bo'lgan. Eng yuqori o'sish 2022-yilda (+14,7%) qayd etilgan bo'lib, bu davrda iqtisodiy faollikning kuchaygani, investitsiyalarning ko'paygani va ishlab chiqarish sohalarida kengayishlar sodir bo'lganini anglatadi. Ushbu natijalar Namangan viloyatida makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanayotganini va iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgarganini tasdiqlaydi.

2-jadval.

Namangan viloyatining tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish (2020–2023 yillar, mlrd so'mda)

T/r	Tuman/Shahar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2020-2023 o'sish (%)
1	Namangan shahri	5 760	6 890	7 820	8 935	+55,1%
2	Pop tumani	1 980	2 345	2 780	3 120	+57,5%
3	Chortoq tumani	1 230	1 540	1 830	2 045	+66,3%
4	Yangiqo'rg'on tumani	1 180	1 420	1 705	1 960	+66,1%
5	Kosonsoy tumani	1 100	1 360	1 620	1 880	+70,9%
6	To'raqo'rg'on tumani	870	1 070	1 265	1 410	+62,1%
7	Uychi tumani	730	910	1 090	1 290	+76,7%
8	Mingbuloq tumani	520	655	770	880	+69,2%
9	Norin tumani	470	590	690	790	+68,0%
10	Chust tumani	690	850	990	1 110	+60,9%
11	Davlatobod tumani	850	1 020	1 200	1 350	+58,8%
	Jami	16 390	19 650	22 770	25 770	+57,3%

Manba: Namangan viloyati Iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi statistik byulleteni, 2024

Jadvalda Namangan viloyatining 2020–2023 yillar davomida tumanlar kesimidagi sanoat ishlab chiqarishi hajmi ko'rsatilgan bo'lib, ushbu davrda umumiy sanoat hajmi 16 390 mlrd so'mdan 25 770 mlrd so'mga yetib, o'rtacha 57,3 foizga oshgani kuzatilmoqda. Eng yuqori o'sish sur'atlari Uychi (+76,7%), Kosonsoy (+70,9%) va Mingbuloq (+69,2%) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, bu hududlarda kichik sanoat zonalari va ishlab chiqarish kooperatsiyalarining faol rivojlanayotganini anglatadi. Namangan shahri esa 8 935 mlrd so'm hajm bilan mutlaq yetakchilikni saqlab qolgan bo'lib, viloyat sanoatining markaziy o'chog'i hisoblanadi. Ushbu raqamlar viloyatda sanoat salohiyatining kengayib borayotganini, hududiy farqlar bo'lishiga qaramay, umumiy iqtisodiy faollikning barqaror

o'sishini va bu orqali iqtisodiy xavfsizlik darajasining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

3-jadval.

Namangan viloyatida bandlik, ishsizlik va iqtisodiy nafaollik ko'rsatkichlari (2020–2023 yillar)

Yil	Mehnatga layoqatli aholi soni (ming kishi)	Band aholilar (ming kishi)	Ishsizlar (ming kishi)	Iqtisodiy nafaol aholi (ming kishi)
2020 yil	1 520	1 320	200	420
2021 yil	1 580	1 370	210	430
2022 yil	1 630	1 450	180	390
2023 yil	1 670	1 500	170	370

Manba: O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, 2024

3-jadvaldagi ma'lumotlar Namangan viloyatida 2020–2023 yillar davomida Namangan viloyatida mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgargani yaqqol kuzatilmoqda. Mehnatga layoqatli aholining soni 1,52 milliondan 1,67 milliongacha oshgan bo'lib, bu demografik o'sish va migratsiya oqibatida yuzaga kelgan tabiiy mehnat resurslarining kengayishini anglatadi. Shu bilan birga, band aholining soni 1,32 milliondan 1,5 million kishigacha ortib, bandlik darajasi 86,8 foizdan 89,8 foizgacha oshgan. Bu esa iqtisodiy faoliyat tarmoqlarida — ayniqsa sanoat, qurilish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida yangi ish o'rinlari yaratilgani, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining kengaygani bilan izohlanadi. Ishsizlik darajasi esa 2020 yildagi 13,2 foizdan 2023 yilda 10,2 foizgacha kamaygan. Bu holat hududda mehnat bozorini tartibga solish, kasb-hunarga qayta o'qitish va bandlik dasturlarining amaliy samarasi oshganidan dalolat beradi. Xususan, yoshlarga mo'ljallangan "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" orqali ishga joylashtirish ko'lami kengaygani, bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyati kuchaygani bu jarayonni jadallashtirgan omillar sifatida qaraladi. E'tiborga molik jihat — iqtisodiy nafaol aholi sonining 420 mingdan 370 ming kishigacha kamaygani va ulushining 27,6 foizdan 22,2 foizgacha qisqarganidir. Bu esa avval mehnat bozorida ishtirok etmagan qatlamlarning iqtisodiy faol hayotga qayta jalb qilinayotganini ko'rsatadi. Jumladan, uy bekalari, nogironligi bo'lgan shaxslar, pensiya yoshidagi kishilarning ba'zilar ham moslashtirilgan ish o'rinlari orqali ishga joylashmoqda. Umuman olganda, bu tahlillar Namangan viloyatida bandlik siyosati samaradorligini, aholining iqtisodiy faolligi oshayotganini va bu orqali viloyat iqtisodiy xavfsizligining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Aholining band bo'lishi darajasi oshgani sayin, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi, kambag'allik kamayadi, bu esa barqaror va xavfsiz iqtisodiy muhit shakllanishiga zamin yaratadi.

4-jadval.

Namangan viloyatiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mln. AQSH dollari) va 2020 yilga nisbatan o'sish (%)

Tarmoqlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2020–2023 yillarda o'sish (%)

Sanoat	45	58	71	83	+84,4%
Qishloq xo'jaligi	18	23	29	34	+88,9%
Qurilish	12	17	22	28	+133,3%
Xizmatlar sohasi	10	14	20	25	+150,0%
Transport-logistika	8	10	13	17	+112,5%
Energetika	6	9	11	15	+150,0%
Boshqa yo'nalishlar	5	7	8	10	+100,0%
Jami	104	138	174	212	+103,8%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi; Namangan viloyati hokimligi investitsiya dasturlari asosida.

2020–2023 yillar oralig'ida Namangan viloyatiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) miqdori sezilarli darajada oshgan bo'lib, bu hududning investitsiyaviy jozibadorligi yildan-yilga kuchayib borayotganidan dalolat beradi. 2020 yilda umumiy investitsiyalar hajmi 104 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 212 mln. AQSH dollariga yetib, 2 barobarga, ya'ni **+103,8% ga o'sdi**. Tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda, **sanoat sohasi** eng ko'p investitsiya jalb qilgan yo'nalish bo'lib, 2020 yildagi 45 mln. dollardan 2023 yilda 83 mln. dollarga ko'payib, **+84,4%** o'sishni ko'rsatdi. Bu sanoat infratuzilmasining rivojlanishi va xorijiy texnologiyalarni jalb qilish imkoniyatining kengayganidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligida ham investitsiyalar 18 mln. dollardan 34 mln. dollarga yetib, **+88,9%** ga oshgan bo'lib, bu sohaga ilg'or agrotexnologiyalar va modernizatsiya jarayonlari kirib kelayotganini bildiradi. **Qurilish sohasida** investitsiyalar 2020 yilga nisbatan 2,3 barobar o'sib, 12 mln. dollardan 28 mln. dollarga yetdi (**+133%**), bu esa sanoat zonalari, turar-joylar va ijtimoiy infratuzilmaga xorijiy kapital jalb etilayotganini ko'rsatadi. Xizmatlar, transport-logistika va energetika yo'nalishlarida ham mos ravishda **+150%, +112,5% va +150%** o'sish kuzatilgan bo'lib, bu xizmat ko'rsatish va yetkazib berish tizimlarining diversifikatsiyalanayotganini ko'rsatadi.

Bu o'sishlar, bir tomondan, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ochiq investitsiya siyosati, erkin iqtisodiy zonalar va investorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, Namangan viloyatining geografik joylashuvi, mehnat resurslarining arzonligi va bozor salohiyatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Natijada, xorijiy kapitalning kirib kelishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatining iqtisodiy xavfsizligi so'nggi yillarda ijobiy o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lsa-da, bu barqarorlikni ta'minlash uchun tizimli va maqsadli choralar zarur. Viloyatda yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, bandlik darajasi va xorijiy investitsiyalar hajmining yilma-yil ortib borayotgani iqtisodiy faollikni ifodalasa-da, bu jarayonda resurslar taqchilligi,

kadrlar malakasi, texnologik yangilanish sur'atining sustligi va tashqi omillarga yuqori darajadagi bog'liqlik kabi xavf-xatarlar saqlanib qolmoqda. Shu sababli, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun birinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ikkinchidan, xorijiy investitsiyalarni diversifikatsiya qilish orqali barcha tarmoqlarni teng rivojlantirish, uchinchidan esa, mehnat resurslarini qayta tayyorlash va zamonaviy kasb-hunarga yo'naltirish kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bularning barchasi hududiy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlab, Namangan viloyatini milliy iqtisodiy xavfsizlikning muhim tayanchi sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. S.X. Ibrohimov. (2024). *Iqtisodiy xavfsizlikning zamonaviy tahdidlar kontekstidagi tahlili*. Toshkent: "Ilm Ziya" nashriyoti.
2. World Bank. (2023). *Global Economic Prospects*. Washington, D.C.: World Bank Publications.
3. OECD. (2022). *Economic Resilience in the Wake of the COVID-19 Pandemic*. Paris: OECD Publishing.
4. B.K. To'xtayev. (2021). *O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligi: nazariy asoslar va amaliy yechimlar*. Toshkent: "Fan va Taraqqiyot".
5. M.R. Abdullayev. (2023). *Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlik omillari*. Samarqand: "Iqtisod-Media".
6. S.T. Rasulov. (2022). *Raqamli transformatsiya va iqtisodiy xavfsizlik: yangi xavf-xatarlar tahlili*. "Iqtisodiy tadqiqotlar" jurnali, №4, 112–119-betlar.
7. United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). *Towards a green economy: Pathways to sustainable development and poverty eradication*. <https://www.unep.org>
8. World Bank. (2022). *Uzbekistan: Country environmental analysis*. Washington, DC: The World Bank.
9. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/XXXXXX>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni PF-187. (2023, October 31). O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – 2030. <https://lex.uz>
11. Stern, N. (2007). *The economics of climate change: The Stern review*. Cambridge University Press.
12. OECD. (2012). *Green growth and developing countries: A summary for policy makers*. OECD Publishing.
13. European Environment Agency (EEA). (2015). *State and outlook of the European environment 2015*. EEA Report No. 1/2015.
14. IPCC. (2014). *Climate change 2014: Mitigation of climate change (Contribution of Working Group III to the Fifth Assessment Report)*. Cambridge University Press.
15. EBRD. (2020). *Transition report 2020-21: The state strikes back*. European Bank for Reconstruction and Development.
16. Sachs, J. D. (2015). *The age of sustainable development*. Columbia University Press.